MAQSUD SHAYXZODANING “JALOLIDDIN MANGUBERDI” ASARINING YOZILISHI

Qo‘ziboyev Behruz Bahodir o‘g‘li
Ochilov Bahodir Ramozon o‘g‘li
Toshkent davlat transport universiteti

Annotation: In this article, the reason for writing the tragedy of Jalaluddin Manguberdi by Maqsud Sheikhzadeh, detailed information about this work is given.

Key words: Mongol invasion, Movaraunnahr, Khorezmshah, scene, courage, victory.

Аннотация: В данной статье приводится причина написания Максудом Шейхзаде трагедии Джалалуддина Мангуберди, дается подробная информация об этом произведении**.**

Ключевая слова: монгольское нашествие, Мовараунnахр, Хорезмшах, ссена, отвага победа.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” tragediyasining yozilish sababi, ushbu asar haqidagi batafsil ma’lumutlar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Mo‘g‘ul istilosi, Movaraunnahr, Xorazmshox, saxna, jasorat, g‘alaba.

Hayoti xavf ostida qolgan xar bir inson Ollohdan madad kutadi. Dushman sovet mamlakatining g‘arbiy chegaralarini bosib o‘tib, bir necha oy mobaynida Moskva ostonalariga yetib kelganida, taqdiri katta xavf ostida qolgan davlat rahbarlari yozuvchilarni o‘tmishdagi mashhur sarkardalar haqida asar yozishga da’vat etdilar. Ular fikriga ko‘ra, bunday asarlar xalq va armiyani o‘tmishdagi jasur sarkardalardan, xalq qahramonlaridan ibratolishga da’vat etishi, ularni bu mashhur shaxslarning vatanparvarlik fazilatlari ruhida tarbiyalashi mumkin edi. Shunday ijofndiy buyurtmani olgan Shayxzoda o‘zbek xalqining jasur farzandlaridan biri Jaloliddin haqida sahna asarini yozishga kirishdi. Mo‘g‘ul istilosi davrida Movaraunnahrda katta jasorat ko‘rsatgan Jaloliddin haqida Shayxzodaga qadar birorta badiiy asar yaratilmagan, sovet tarixchilarining ilmiy asarlarida esa uning na nomi, na jangovar jasorati iliq so‘zlar bilan tilga olingan edi. Shunga qaramay, Shayxzoda bu ajoyib siymo haqidagi Shahobuddin Muhammad Nasaviyning “Siyrat as-sulton Jaloliddin Mangburni” va Alouddin Atomalik Juvayniyning “Tarixi jahongushoyi Juvayniy” kabi asarlarini o‘qib, shu asarlarda tasvirlangan tarixiy davr voqealari asosida o‘z asarini yozishga ahd qildi. Shuni alohida qayd etish joizki, Jaloliddin haqidagi noyob manbalardan biri – Nasaviyning nomi yuqorida qayd etilgan asarida mashhur sarkardaning ismi Jaloliddin

rMangburni deb atalgan. “Mangburni” laqabini ayrim tarixchilar “burnida xoli bor”, “xoldor” deb talqin Naim Karimov. Mahmudxo‘ja Behbudiy www.ziyouz.com kutubxonasi 121 qiladilar. Ammo Shayxzoda o‘z asarida Jaloliddinni, tarixiy manbalardan farqli o‘laroq, “Manguberdi” deb atagan va Nasaviy kitobidagi “Mangburni” so‘zini o‘zbek tiliga shunday tarjima qilgan. Va mashhur sarkarda o‘zbek xalqi o‘rtasida hanuzgacha shu nom bilan yashab keladi. Tarixiy manbalarga qaraganda, agar Xorazmshoh Chingizxonning tinchlik va totuvlik haqidagi taklifini qabul qilib, u yuborgan elchi bilan birga savdo karvonini ham qilichdan o‘tkazmaganida, qudratli Xorazm saltanati XIII asrda mo‘g‘ullar tomonidan qonga botirilmagan bo‘lardi. Xorazmshoh Chingizxonning o‘sha davrdagi eng qudratli qo‘shinni to‘plagani bilan hisoblashmay, katta xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, chor atrofga o‘lim urug‘ini sochib, ya’juj-ma’juj singari bosib kelayotgan mo‘g‘ullarga qarshi otlangan Jaloliddinga yordam bermay, aksincha, unga har tomonlama qarshilik ko‘rsatib, yana-da katta xato qilgan. Jaloliddin vatan va tarix oldidagi burchini chuqur his etgani uchungina kichik bir qo‘shin bilan mo‘g‘ullarga qarshi tengsiz kurashga otlanadi va chinakam jasorat namunalarini ko‘rsatadi. Jaloliddin mo‘g‘ullarning ashaddiy dushmani bo‘lganiga qaramay, Chingizxon uning dovyurakligi va sarkardalik mahoratiga tan berishga majbur bo‘ladi. Shayxzoda yetuk yozuvchi sifatida yoza boshlagan ilk sahna asariga ana shunday tarixiy shaxsni –mo‘g‘ul qo‘shinlariga g‘ulg‘ula solgan, g‘alaba yuz o‘girgan jang maydonlaridan ham omoneson chiqib ketgan Jaloliddinni qahramon qilib oladi.

Tarixiy asar, shubhasiz, yozuvchidan tarixiy manbalarni qunt bilan o‘rganishni taqozo qiladi. Shayxzoda 1943 yili, uchto‘rttata she’r yozganini e’tiborga olmaganda, aksar vaqtini tarixiy hujjat va sanadlarni o‘rganishga bag‘ishladi. So‘ngra 1944 yilning boshlaridayoq bevosita asar ustida ishlay boshladi. Urush davri o‘zbek adabiyoti va san’ati yiriknamunalarining maydonga kelishida Usmon Yusupovning xizmatlari oz emas. Respublikaning o‘sha paytdagi bu tinibtinchimas rahbari boshqa muhim va dolrazb ishlari bisyor bo‘lishiga qaramay, adabiyot va san’at namoyandalarining samarali ishlashlari uchun yo‘l-yo‘riq ko‘rsatibgina qolmay, amaliy yordam ham berdi. U Shayxzoda yoza boshlagan asarning tezroq yakunlanishi uchun uni O‘zbekistonning xushmanzara maskanlaridan biri – Farg‘ona viloyatidagi jamoa xo‘jaliklaridan biriga qarashli boqqa yubordi. “Boshqa ishlar bilan xayolingni bo‘lma. Xalq va armiya sendan Jaloliddin to‘g‘risidagi asarni intizorlik bilan kutmoqda. Vodilga borib, uni tezroq tugallab qayt!” – dedi u shoirga. Shayxzoda xotini Sakinaxonim bilan birga Vodilga yo‘l olib, o‘sha yerda olti oycha biror narsaga chalg‘imay ishladi. Shoir Vodilga yetib borganida, erta bahor bo‘lgani tufayli bog‘bonlar ham, boshqa kolxozchilar ham ko‘chat ekish bilan mashg‘ul edilar. Shayxzoda ijoddan horigan soatlarida ular bilansuhbatlashib, o‘zi ham bir-ikki ko‘chat ekdi. Shunday ”ko‘chatxonlik” paytlarida manglayida o‘tgan yillar izi bo‘rtib turgan bir bog‘bon bilan

tanishib, unga bag‘ishlab she’r yozdi. Shoir vafotidan keyin e’lon qilingan bu she’r garchand Jaloliddin mavzuiga aloqador bo‘lmasa-da, uning o‘sha kezlardagi ruhiy hayoti bilan tanishishimizga yordam beradi, deb o‘ylaymiz.Bu asardan uning o‘zi emas, boshqalar bahramand bo‘lishadi. May oyi bo‘lsa kerak, Shayxzoda shogirdlaridan biriga ikki enlik xat yozadi. Xatda uning bir necha kitob olib, Vodilga birrov kelib-ketishi so‘ralgan edi. Shogird Xorazmshohlar tarixiga doir bir-ikki tarixiy kitobni olib, Vodilga yetib boradi.. So‘ngra uning iltimosi bilan Marg‘ilonga borib, Xudoyorxon lashkarida xizmat qilgan keksa kishilarni surishtirib topadi va o‘sha paytda qo‘llangan qurol-yarog‘larning nomlarini aniqlab keladi. Shundan keyin ustoz shogirdni yetaklab, Xo‘jandga boradi. Ular Sirdaryo bo‘yidagi Xo‘jand qal’asining mudofaa qo‘rg‘oniga borib, qadimiy istehkom vayronalarini, Jaloliddin va Temur Malikning izlari hali o‘chmagan joylarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘radilar. Odatda shunday sayrlar chog‘ida Jaloliddin yoki Temur Malikning qaysi yo‘ldan yurib, Sirdaryoning qaysi yoqasi orqali daryoni kechib o‘tganini “o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan” yo eshitgan kishilar uchrab qoladilar. Shayxzoda shunday ”tirik guvohlar” bilan suhbatlashar ekan, ular bergan ma’lumotlar qanchalik to‘g‘ri yo noto‘g‘ri bo‘lishidan qat’iy nazar, bu olis tarix bilan qiziquvchi kishilarni uchratganidan astoydil quvonar, ularni noto‘g‘ri ma’lumotlari uchun hijolatga qo‘ymagan holda o‘zi Jaloliddin Manguberdi va Temur Malik haqidagi tarixiy haqiqatni zavq bilan so‘zlab berar edi. Shayxzoda asar ustida ana shu tarzda berilib ishladi. Bundan yetti asr muqaddam ro‘y bergan o‘ta murakkab va dahshatli voqealarni ko‘z oldiga yaqqol keltirgandan keyingina asarni yozib tugatdi.